



**SHIRACHDOSHLAR OILASI (*ASPHODELACEAE*) VA SHIRACH
(*EREMURUSL.*) TURKUMIGA MUMIY TAVSIF**

Ibragimov Akram Javliyevich

Termiz Davlat universiteti Botanika kafedrası dotsenti

Bekmurotov Mahmud Bekmurot o`g`li

Termiz davlat universiteti 4-bosqich talabasi

mahmudbekmurotov@gmail.com

Anotatsiya. Shirachlar yer shari florasi ayniqsa, Markaziy Osiyoning o`ziga xos, o`ta qimmatli o'simliklar turkumidir. Shunday qilib shirachlar (*Eremurus* turkumi) ni o'rganish ham iqtisodiy ham ilmiy jihatdan juda muhimdir. Shirachlar yer yuzida ancha keng tarqalgan, ularning areali Yaqin va O`rta Sharq, Kavkaz, Qozogistonni egallaydi. Regel shirachining tabiiy zahiralari va fenologik bosqichlarning o`tishi haqidagi ayrim ma`lumotlarni A.S.Yuldashev o'rgangan. Regel shirachi - *Eremurus regelii* Vverd. Turkumning shu nomli seksiyasiga mansub 1-2 metr keladigan ko'p yillik o`t.

Kalit so`zlar: Shirach, O`rta Sharq, Kavkaz, Qozogiston Markaziy Osiyo, *Asphodelaceae*, Regel shirachi - *Eremurus regelii* Vverd, Norshirach yoki ulkan shirach – *Eremurus robustus* Rgl, A.S.Yuldashev.

Abstract: Shirach (*Eremurus*) species are among the unique and extremely valuable plant groups of the Earth's flora, especially in Central Asia. Therefore, studying *Eremurus* is significant both economically and scientifically. These plants are widely distributed around the world, with their habitat covering the Near and Middle East, the Caucasus, and Kazakhstan. Some data on the natural reserves and phenological stages of Regel's shirach (*Eremurus regelii* Vved.) were studied by A.S. Yuldashev. *Eremurus regelii* belongs to the section of the genus of the same name and is a perennial herbaceous plant that can grow 1–2 meters tall.

Keywords: *Eremurus*, Middle East, Caucasus, Kazakhstan, Central Asia, *Asphodelaceae*, Regel's shirach – *Eremurus regelii* Vved., Giant shirach – *Eremurus robustus* Rgl., A.S. Yuldashev





Аннотация: Ширачи (*Eremurus*) являются уникальной и чрезвычайно ценной группой растений мировой флоры, особенно характерной для Центральной Азии. Таким образом, изучение рода *Eremurus* имеет как экономическое, так и научное значение. Эти растения широко распространены по всему миру, их ареал охватывает Ближний и Средний Восток, Кавказ и Казахстан. Некоторые данные о природных запасах и фенологических стадиях ширача Регеля (*Eremurus regelii* Vved.) были изучены А.С. Юлдашевым. Ширащ Регеля относится к одноименной секции рода и представляет собой многолетнее травянистое растение, достигающее 1–2 метров в высоту.

Ключевые слова: *Eremurus*, Ближний Восток, Кавказ, Казахстан, Центральная Азия, *Asphodelaceae*, ширач Регеля – *Eremurus regelii* Vved., гигантский ширач – *Eremurus robustus* Rgl., А.С. Юлдашев

KIRISH

Shirachlar yer shari florasi ayniqsa, Markaziy Osiyoning oʻziga xos, oʻta qimmatli oʻsimliklar turkumidir. Ularning tasmasimon toʻpbarglari, jozibador

«sulton» tarzidagi toʻpguli, yulduzsimon shaklli va sariq sutsimon suyuqlikka boy ildiz sistemasi kishining etiborini jalb etadi. Ularning vegetativ aʼzolari deyarli bir xil tuzilishli, ammo gul tuzilishi va rangi juda xilma-xildir. Bu xususiyatlari ularni madaniylashtirilganda ham saqlanib qoladi. Shirachlarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularning gul tuzilishi biologiyasidadir. Gullash jarayonida gultojbarglar, changchilar murakkab harakatlar sodir etishadi.

Shunday qilib shirachlar (*Eremurus* turkumi) ni oʻrganish ham iqtisodiy ham ilmiy jihatdan juda muhimdir. Shirachlar yer yuzida ancha keng tarqalgan, ularning areali Yaqin va Oʻrta Sharq, Kavkaz, Qozogistonni egallaydi. Ammo hozir aniqlangan 70 taga turlardan 30 tasi Markaziy Qsiyoning janubida tarqalgan, Oʻzbekiston florasida 21 ta tur shirach oʻsadi. Ularning aksariyat koʻpchiligi tabiatda juda kamayib ketayotir. Shu sababdan Oʻzbekiston shirachlaridan 12 turi "Qizil kitob" oʻsimliklaridir.

Shirachdoshlar oilasi (*Asphodelaceae*) va shirach turkumi (*Eremurus*) haqida umumiy maʼlumotlar

Shirachdoshlar oilasi Liliyasimonlar. bir urugʻpallalilar (*Liliopsida*, *Monocotyledoneae*) kichik sinfining Nargisnamolar (*Amaryllidales*) qabilasiga mansubdir. Bu qabilaning hozirgi vaqtda 15 ta oilasi mavjud boʻlib, shulardan biri shirachdoshlar oilasi hisoblanadi. Shirachdoshlar 1789 yilda Antuan Jyusye tomonidannomlanganvafangakiritilgan. Yersharidauning46-50tachaturkumlari





va 1400-1450 atrofida turlari borligi aniqlangan. Shirachdoshlar bir qator belgilariga ko'ra asfodeldoshlar va anterikadoshlar kabi 2 ta kichik oilaga ajratiladi. Shirach turkumi esa, asfodeldoshchalarning (*Asphodeloideae*) 15 turkumidan bittasidir. turkumining seksiyalari bu jihatdan ham qisman o'zaro farqlanishi isbotlaydi. Rossiyada shirachlarni madaniy o'simlik sifatida ekish haqidagi tavsiyalarni Regel ishlab chiqdi va bu sohadagi natijalarini O.A.Fedchenko e'lon etdi. Shu yillarda u shirachlarning yana 4 turini kashf etdi.

1946 yilda Vvedenskiy shirachlarning 7 ta yangi turini kashf etdi. Shunday qilib shirach turkumining turlar tarkibi va ularning seksiyalarga bo'linish haqidagi ma'lumotlar ancha batafsil o'rganilgan, shu jumladan O'zbekiston florasida turkumning 21 turi tarqalganligi aniqlandi [7]. Regel shirachining tabiiy zahiralari va fenologik bosqichlarning o'tishi haqidagi ayrim ma'lumotlarni A.S.Yuldashev o'rgangan [8].

Regel shirachi - *Eremurus regelii* Vverd. Turkumning shu nomli seksiyasiga mansub 1-2 metr keladigan ko'p yillik o't. Ildizlari to'qqigarrang, diametri 0,8-1,2 sm. Barglari 30 tacha, keng tasmasimon, orqasida bo'rtik bo'ylama qirrali, ko'kimtir - yashil. tuksiz (silliq), cheti va bo'rtikchasida g'ildirli. Eng sirtqi barglarining uzunligiga 50-60 sm. eni 3.0-3.5 sm. Poyasining yo'g'onligi 2 smcha qalin ko'kimtir g'uborli. To'pguli tig'iz, silindrsimon, 70-100 smcha diametri 5-6 sm, to'pgul yoki baquvvat (yo'g'on), qo'ng'ir-to'qqizil, qobirg'ali.



1-rasm

Norshirach yoki ulkan shirach – *Eremurus robustus* Rgl. Shirach turkumining *Hennimgia* seksiyasiga mansub bo'yi 3 metrgacha bo'ladigan ko'p yillik o't poyasi baland va yo'g'on bo'lganidan norshirach deb nomlangan.





2-rasm

Xulosa

Eremurus turkumi — Asphodelaceae oilasiga mansub ko‘p yillik, ildizpoyali, guldor o‘simliklar guruhidir. Ular Markaziy Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Xitoyning g‘arbiy hududlari va g‘arbiy Himolaylarda keng tarqalgan. O‘zbekiston hududida bu turkumga kiruvchi 15 dan ortiq tur mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tog‘ oldi va tog‘li hududlarda, ayniqsa G‘arbiy Tyan-Shan va Hisor tizmalari yonbag‘irlarida uchraydi. Ayrim turlari endemik bo‘lib, O‘zbekiston florasining noyob va muhofaza talab etuvchi vakillari sirasiga kiradi.

Eremurus turlari o‘zining baland, dekorativ gul sopi, yirik ildizpoyasi va o‘ziga xos to‘pgul ko‘rinishidagi gullari bilan ajralib turadi. Ularning vegetatsion davri nisbatan qisqa — asosan bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Gullari asosan entomofil (hasharotlar bilan changlanadi), bu esa ularning tabiiy populyatsiyalarida changlanish mexanizmlarini chuqur o‘rganish zaruratini tug‘diradi.

Ushbu o‘simliklarning ahamiyati faqat botanik yoki ekologik darajada emas, balki amaliy nuqtai nazardan ham katta. Masalan, ayrim Eremurus turlarining ildizpoyasidan yuqori sifatli texnik elim — shiragul elimi olinadi. Bu elim xalq amaliyotida gilamchilik, charm va kitob muqovalarini yopishtirishda ishlatilgan. Shuningdek, ularning ba‘zi turlari dorivor xususiyatlarga ega bo‘lib, xalq tabobatida ichki yallig‘lanishlar, shamollash va teri kasalliklariga qarshi ishlatiladi.

Botanika va sistematika sohalarida Eremurus turlarining o‘zaro farqlanish belgilarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Ularning tashqi morfologik o‘xshashligi, ayniqsa, gulli davrdan keyingi bosqichlarda aniq diagnostik belgilarning



yoʻqligi bu turkumda identifikatsiyani murakkablashtiradi. Soʻnggi yillarda molekulyar-genetik usullar asosida olib borilgan tadqiqotlar Eremurus turkumining filogeniyasi va tur ichidagi qarindoshlik aloqalarini chuqurroq aniqlashga imkon bermoqda.

Shuningdek, bu oʻsimliklar tabiiy fitotsenozlarda muhim komponent hisoblanadi. Ular bahorgi ephemeroïdlar tarkibida boʻlib, togʻ va yarim choʻl hududlarida tuproqning eroziyaga uchrashini kamaytiradi va changlatkich hasharotlar uchun muhim nektar manbai sanaladi. Shu sababli, Eremurus turlarining tabiiy areallarini muhofaza qilish va ularni madaniy holda yetishtirish muhim ekologik vazifalardan biridir.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, Eremurus turkumi botanik, ekologik va iqtisodiy nuqtai nazardan yuqori ahamiyatga ega. Ularni chuqur ilmiy oʻrganish, ayniqsa morfologik, ekologik, fitokimyoviy va genetik jihatdan tahlil qilish — nafaqat floristik boyliklarni saqlab qolish, balki ularning dorivor, texnik va dekorativ imkoniyatlarini amaliyotga tadbiq etishga xizmat qiladi. Eremurus turlarini muhofaza qilish, ularni bioresurs sifatida ilmiy asosda foydalanish Oʻzbekiston tabiati va bioxilma-xilligini saqlashda muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev K.K. (1960). Flora Uzbekistana. Tom 3. Fan nashriyoti, Toshkent.
2. Astanova Sh.A. (2005). Eremurus turlarining sistematikasi va geografiyasi. Toshkent: TDPU.
3. Bobokhonov U.H. (2017). Oʻzbekistonda oʻsuvchi Eremurus turlarining biomorfologik xususiyatlari. Ilmiy maqola, “Biologiya va tibbiyot muammolari” jurnali.
4. Davlyatov A. (2012). Dorivor oʻsimliklar va ularning farmakologik xususiyatlari. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti.
5. Drobov V.I. (1953). Kultiviruemye rasteniya SSSR. Moskva: Kolos.
6. Karimov A.K. (2002). Oʻzbekiston florasida va oʻsimlikshunoslik asoslari. Toshkent: Oʻzbekiston.
7. Kinzikaeva G.K. (1988). Rod Eremurus Bunge (Asphodelaceae) v flore Sredney Azii. Tashkent: FAN.





8. Kurbaniyazov S. (2020). O‘zbekistonda Eremurus turlarining ekologik-xorologik xususiyatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
9. Rakhimova Sh.R. (2015). Eremurus turlarining fitokimyoviy o‘ziga xosliklari. Toshkent: Bioorganik kimyo instituti nashrlari.
10. Tojibaev K.Sh. (2010). O‘zbekiston florasining sistematikasi va evolyutsiyasi. Toshkent davlat universiteti nashriyoti.

